

**SHARTNOMA № - 1**  
**(Joriy ta'mirlash)**

« 25 » May 2022 yil

Kitob tumani.

Keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritilgan **Kitob tumani Tibbiyot birlashmasi boshlig'i Sh.Gapparov** bir tomondan va Nizom asosida ish yurituvchi va keyingi o'rinlarda "Bosh pudratchi" deb yuritiladigan **Kitob tumani "Elegant Nur MITQ" MCHJ nomidan rahbar M.Gapparov** ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagi mazmunda tuzdilar

**1. SHARTNOMA MAZMUNI.**

1.1. "Bosh pudratchi" mazkur shartnoma shartlariga ko'ra "Buyurtmachi" balansida bo'lgan **Tibbiyot birlashmasini** loyiha-smeta hujjatlari asosida joriy ta'mirlash ishlarini bajarib berishni o'z zimmasiga oladi.

1.2. "Buyurtmachi" esa "Bosh pudratchi"ga qurilish ishlarini bajarish uchun zarur bo'lgan sharoitlarni, tegishli loyiha hujjatlari bilan ta'minlash, bajarilgan joriy ta'mirlash ishlarini tegishli tartibda qabul qilib, to'lov ishlarini amalga oshirish majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi.

1.3. Obyektda joriy ta'mirlash ishlarini bajarish **muddati "25" may 2022-yildan "31"-dekabr 2022-yilgacha.**

**2. SHARTNOMA BAHOSI.**

2.1. Mazkur shartnoma bo'yicha "Bosh pudratchi" tomonidan bajariladigan ishlar qiymati barcha soliqlar, yig'imlar va ajratmalarni o'z ichiga olgan holda **857630810 (Sakkiz yuz ellik yetti million olti yuz o'ttiz ming sakkiz yuz o'n) so'm.**

2.2. Qurilish bahosi va muddati mazkur shartnomada nazarda tutilishi mumkin bo'lgan qurilish hajmining oshishi yoki kamayishini joriy ta'mirlash ishlari bajarilgunga qadar hukumat qaroriga ko'ra qiymatliklar o'zgartirilganligini fors-major holatlarini istisno etgan holda qat'iy sanaladi.

2.3. Tegishli asoslar mavjud bo'lgan taqdirdagina shartnoma bahosiga oid o'zgartirishlar shartnomaga qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

**3. SHARTNOMA BO'YICHA TOMONLARNING HUQUQ MAJBURIYATLARI.**

"Bosh pudratchi":

3.1. "Bosh pudratchi"ning huquqlari:

3.1.1. Bajarilgan ish uchun oldindan avans xaq to'lanishini va ishni bajarib topshirgandan so'ng to'la hajmda hisob kitob qilinishini talab qilish;

3.1.2. Bajarib berilgan ishni qabul qilib olish asossiz ravishda rad etilishi natijasida yetkazilgan zarar qoplanishini talab qilish;

3.1.3. «Pudratchi»ning shartnomada ko'rsatilganidan boshqa huquqlari

3.2.1. Barcha joriy ta'mirlash ishlarini mazkur shartnomaga ilova qilingan loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan hajmda va belgilangan muddatda o'zining kuchlarini yoki jalb qilingan uchinchi shaxslar yordamida bajarish hamda shartnoma shartlariga ko'ra "Buyurtmachi"ga topshirish.

3.2.2 O'zi jalb qilgan uchinchi shaxslar tomonidan bajarilgan joriy ta'mirlash ishlari sifatiga, muddati uchun javobgar bo'lish.

3.2.3. "Buyurtmachi"ni o'zi bilan uchinchi (Sub pudratchi) shaxslar o'rtasida tuzilayotgan shartnoma haqida xabardor qilish.

3.2.4 "Buyurtmachi" yetkazib bergan va o'z kuchi mablag'i evaziga tashib keltirilgan qurilish materiallari va konstruktivlarini ularga zarar yetmagan holda saqlash.

3.2.5. Joriy ta'mirlash ishlari bajarilayotgan obyektda ekologiya va tozalikka rioya etgan holda texnika va yong'in xavfsizligi tadbirlarini ta'minlash.

3.2.6. O'zi tomonidan keltirilgan qurilish materiallarining loyihada nazarda tutilgan talablarga (standart va x.k) javob berishini ta'minlash.

"Buyurtmachi":

3.3.1. Kalendar ish rejasida belgilangan tartibda lekin shartnoma imzolangan kundan e'tiboran 5 kun muddat ichida obyekt maydoni va loyiha hujjatlarini "Bosh pudratchi"ga topshirish.

3.3.2 Shartnomada nazarda tutilgan miqdorda va muddatda bajarilgan joriy ta'mirlash ishlari uchun "Bosh pudratchi" ga haq to'lash.

3.3.3 "Bosh pudratchi"ning yozma talab, iltimos to'lov va e'tirozlari 5 kunlik muddat ichida o'rganilib chiqib munosabat bildirish.

3.3.4 Kalendar ish rejasi asosida bajarilgan ishlarni tegishli tartibda qabul qilib olish.

3.4. «Buyurtmachi»ning huquqlari:

3.4.1. «Pudratchi»dan bajarilgan ishlar davlat standartlari va boshqa me'yoriy xujjatlar asosida bajarilishini talab qilish;

3.4.2. «Pudratchi» tomonidan bajarilgan ishlarda aniqlangan kamchiliklarni bepul bartaraf etilishi yoki kamchiliklar boshqa shaxs tomonidan to'g'rilanishi xarajatlarini qoplanishini talab qilish;

3.4.3. O'zi tomonidan «Pudratchi»ga berilgan materiallar va boshqa ashyolar qaytarilishini talab qilish;

3.4.4. Buyurtmachining shartnomada ko'rsatilganidan boshqa huquqlari



#### **4. TO'LOV VA HISOB-KITOBLAR**

4.1. Ushbu shartnoma bo'yicha to'lov O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 16-martdagi №-139-sonli Qaroriga asosan byudjet tashkilotlarini tovar (ish.xizmat) yetkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalari majburiy tarzda G'aznachilik bo'linmasidan ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng bajariladigan ishlar bo'yicha 30 kun ichida oldindan **30% to'lov (257289243 so'm) amalga oshiriladi va qolgan 70% to'lovi (600341567 so'm)** taqdim etilgan hisob-fakturalarga asosan amalga oshiriladi.

4.2. Bajarilgan ishlarda aniqlangan kamchiliklar bartaraf etilmagunga qadar to'lov ishlari kechiktirilishi mumkin.

#### **5. ISHLARNI OLIB BORISH VA KAFOLAT MUDDATI.**

5.1. "Buyurtmachi" qurilish obyektiga o'z vakili "Texnik nazoratchi" tayinlaydi. U "Buyurtmachi" nomidan ishlarning hajmi va sifati, materiallari hamda boshqa ashyolarni shartnoma shartlari va loyiha hujjatlari talablariga mosligini tekshirib, bajarilgan ishlar dalolatnomasini rasmiylashtiradi.

5.2. Qurilish maydonida bajarilgan Joriy ta'mirlash ishlarini loyiha hujjatlari va qurilish qonun qoidalari talablariga javob berish uchun "Bosh pudratchi" ma'sul sanaladi.

5.3. Obyekt va unga kiradigan muhandislik tizimlarini qurilish materiallari, jihozlaridan foydalanish va ishlarini kafolatlik muddati tomonlar qurilishi tugallangan obyektning qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnomani imzolagandan so'ng 12 oy obyektning kafolatli muddati 24 oy deb belgilanadi.

5.4. Sifatsiz bajarilgan ishlarni qayta tiklash uchun sarf qilingan qo'shimcha harajatlar shartnoma qiymatidan tashqari bo'lib, aybdor hisobidan qoplanadi.

5.5. Sifatsiz va kamchilik bilan bajarilgan ish aniqlanganligi xususidagi dalolatnoma bilan tomonlar kelisha olmasalar, ekspertiza tayinlanadi yoxud sud tartibi hal qilinadi.

#### **6. QURILISHNI KONSERVATSIYALASH VA FORS-MAJOR HOLATI.**

6.1. Qurilishni konservatsiyalashda taraflar majburiyatlarining ijro muddatini bartaraf etib bo'lmaydigan vaziyat (fors-major) 1 oydan ortiq davom etadigan bo'lsa, qurilishni noma'lum muddatga to'xtatish (konservatsiyalash) uchun chora-tadbirlarni ko'rishni muxokama etadilar. Bir to'xtatimga kelinmasa, 2 oy mobaynida taraflar shartnomani bekor qilishni talab qilishga haqlidirlar.

6.2. Ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni to'liq yoki qisman bajarilmasligi tabiat hodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va bu holatlar shartnoma shartlarini bajarilishiga bevosita ta'sir etsa tomonlarning javobgarlikdan ozod etilishi Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

6.3. Qurilish obyektga to'laligicha konservatsiya qilish haqidagi qaror qilingan kunga qadar bajarilgan ishlar haqi to'liq to'lanadi.

#### **7. SHARTNOMANI O'ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH TARTIBI.**

7.1. "Buyurtmachi" "Bosh pudratchi"ning aybi bilan qurilish grafik rejasi va loyiha shartlarida ko'rsatilgan ishlarning bajarilishi bir oydan ortiq vaqtda to'xtatilganda, ish sifati buzilganda, "Bosh pudratchi" yuridik shaxs sifati qonunda belgilangan tartiblarda aniqlanganda, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishdan asossiz bosh tortganda qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

7.2. "Buyurtmachi" "Bosh pudratchi" tomonidan asossiz ravishda 1 oydan ortiq vaqt mobaynida Qurilish ishlari to'xtatilib qo'yilganda, moliyalashtirishni to'xtatib qo'yish huquqiga egadir.

7.3. Shartnomani bekor qilish haqidagi talablar taraflar bir-birini yozma ravishda xabardor qilingan holda 1 oylik muddat ichida ko'rib chiqilib, hal qilinadi. Shartnomani asossiz bir tomonlama bekor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi.

7.4. Shartnoma bekor qilinganda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zarar va boy berilgan foydani to'laydi.

7.5. Shartnomaga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish ikkala tomonni roziligiga asosan yozma ravishda amalga oshiriladi.

#### **8. TOMONLARNING MULKIY JAVOBGARLIGI.**

8.1. "Buyurtmachi" "Bosh pudratchi"ga majburiyatning bajarilmagan qismi uchun o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun 0,4% miqdorida penya to'laydi. Penya bajarilmagan majburiyatning 50 % idan oshmasligi lozim .

8.2. Shartnomaga muvofiq bajarilgan ishlar hajmini tasdiqlashdan asossiz bosh tortganligi uchun "Buyurtmachi" "Bosh pudratchi"ga o'zini tasdiqlashni rad etgan so'mmaning 5 % miqdorida jarima to'laydi.

8.3. "Bosh pudratchi" "Buyurtmachi"ga o'z majburiyatlarini bajarmagan qismini har bir kechiktirilgan kun uchun 0,5 % miqdorida penya to'laydi. Penya bajarilmagan majburiyatining 50 %idan oshmasligi lozim .

8.4. "Bosh pudratchi" tomonidan bajarilgan ishlar sifati shartnomada va loyihada belgilangan va boshqa qonun talablariga javob bermasa, sifatsiz bajarilgan ish hajmi qiymatining 10 % miqdorida "Buyurtmachi" ga jarima to'laydi.



8.5. "Buyurtmachi" dan olingan foydalanilmagan qurilish materiallari va boshqa ashyolar bir oylik muddat ichida qaytarilmasa, qaytarilmagan mulkning 10% miqdorida jarima qo'llanishiga sabab bo'ladi.

## 9. ALOHIDA QOIDALAR.

9.1. "Bosh pudratchi" o'z kuchi mablag'i bilan olib kelgan qurilish materiallari va boshqa ashyolarning shartnoma va hamda loyiha talablariga mos kelishi haqida sertifikat texnik pasportlari bo'lishini ta'minlashi shart.

9.2. Qurilish materiallari va boshqa ashyolar "Bosh pudratchi" tomonidan markazlashtirilgan omborlar orqali "Bosh pudratchi" ning yozma ogohlantirish (trebovaniye) orqali beriladi.

9.3. Joriy ta'mirlash ishlarini bajarish uchun zarur bo'lgan transport vositalari maxsus transportlar "Yordamchi pudratchi" ixtiyorida bo'lmasa, "Bosh pudratchi" tomonidan markazlashtirilgan usulda ta'minlanadi.

9.4. Qurilish materiallari va boshqa ashyolardan hamda transport vositalaridan foydalanganlik uchun hisob-kitob qilish shartnoma doirasida amalga oshiriladi.

9.5. Shartnoma loyiha hamda qonun talablariga javob bermaydigan material va uskunalardan foydalanish ta'qiqlanadi.

## 10. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLAR

10.1. Tomonlar:

- Tomonlar, ularning affilangan (o'zaro bog'langan) shaxslari va xodimlari, ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishlari davomida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari talablarining buzilishiga olib keladigan va/yoki korrupsiya xarakteriga ega bo'lgan, shu jumladan (ammo bu bilan cheklanmay) pora berish yoki berishni va'da qilish, ta'magirlik, pora olishga bevosita yoki bilvosita rozi bo'lish xatti-harakatlari/harakatsizliklarini sodir etmaydilar. - Tomonlar, ularning affilangan (o'zaro bog'langan) shaxslari va xodimlari boshqa Tomonning xodimlari yoki vakolatlangan vakillarini qandaydir tarzda rag'batlantirishdan, shu jumladan pul summalari, sovg'alarni taqdim etish, ularning manziliga xizmatlarni beg'araz ko'rsatish yoki bu xodim yoki vakolatlangan vakil tomonidan uni rag'batlantiruvchi Tomon foydasiga qandaydir xatti-harakatlarni/harakatsizliklar bajarilishini ta'minlashga qaratilgan ishlarni bajarishdan voz kechadilar deb ma'lum qiladilar.

10.1.1. Tomonlarda ushbu Shartnomaning 10.1.-bandidagi talablarni buzish sodir etilganligi yoki sodir etilishi mumkinligi to'g'risidagi shubhalar yuzaga kelgan holda, tegishli Tomon bu haqda ikkinchi Tomonni xabardor qilish, korrupsiya bilan kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarining normalari buzilganligi faktining rad etib bo'lmaydigan dalillari mavjud bo'lgan holda esa – amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vakolatlangan organlarni ham xabardor qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

## 11. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI.

11.1. Shartnomani amal qilish muddati shartnoma ikki tomon o'rtasida imzolanib, G'aznachilik bo'linmasi tomonidan ro'yxatga olingan kundan boshlab yuridik kuchga ega bo'ladi va **31-dekabr 2022-yilgacha amal qiladi.**

## 12. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI.

**"Pudratchi"**

Kitob tumani "Elegant MITQ Nur" MCHJ

Manzili: Kitob tumani

tel/faks: 901887170

X/p: 20208000704773100001

Bank nomi: Mikrocredit bank Kitob tumani

OKED: MFO: 00177

INN: 301159472

Rahbar: M.G'afforov



**"Buyurtmachi"**

Kitob tumani Tibbiyot birlashmasi

Katta yul -123 uy, INN: 200693709

Shxr: 401722860102327073101054002

Markaziy bank BBXKKM, MFO-00014

O'zbekiston Respublikasi Moliya

Vazirligi Gaznachiligi INN:201122919

X/r-23402000300100001010

Rahbar: Sh.X.Gapparov





## YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

1. Loyihaning turi. Shartnoma

2. Loyihaning nomi. Joriy ta'mirlash

Kitob tuman tibbiyot birlashmasi va Kitob tumani "Elegant Nur MITQ" MCHJ o'rtasida tuziladigan umumiy qiymati 857630810 (Sakkiz yuz ellik yetti million olti yuz o'ttiz ming sakkiz yuz o'n) so'mlik Tibbiyot birlashmasini loyiha-meta hujjatlari asosida joriy ta'mirlash ishlarini bajarib berish to'g'risidagi shartnoma loyihasi

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:

Kitob tuman tibbiyot birlashmasi tomonidan, markazga 23-may 2022-yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi (Fuqarolik kodeksi va "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi) qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Markaz bosh yuriskonsulti



N.Ashurov

2022-yil 24-may

**Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 84318 на приобретение Китоб тумани тиббиёт бирлашмасида жорий таъмирлаш ишларини бажариш**

Способ проведения электронный

Дата 18.05.2022

Время рассмотрения 18.05.2022 13:28

Конкурсная комиссия Китоб туман Тиббиёт бирлашмаси, (Далее – Комиссия) в составе:

<b>Председатель комиссии</b>	GAPPAROV SHAVKAT XASANOVICH	Boshliq	Kitob TTB
<b>Секретарь комиссии</b>	XOLIKOV AXTAM ZAXIDOVICH	Vrach statist	Kitob ttb
<b>Член комиссии</b>	BOBOMURODOV ILXOM SHODIYEVICH	Bulim boshligi	Kitob ttb
<b>Член комиссии</b>	MUXAMMADIYEV SUXROBJON SALOXIDDINOVICH	Boshliq urinbosari	Kitob ttb
<b>Член комиссии</b>	TOSHPUKATOV SHUXRAT SUYUNOVICH	Iqtisodchi	Kitob ttb
<b>Член комиссии</b>	SULTONOV AKRAM MAXMARAJABOVICH	Bulim boshligi	Kitob ttb
<b>Член комиссии</b>	XAYRULLAYEV ZIYODULLO MUYIDDINOVICH	Boshliq urinbosari	Kitob ttb
<b>Член комиссии</b>	XASANOV ERGASH BARATOVICH	Terapiya bulimi boshligi	Kitob ttb

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 18.05.2022 года № лота 84318.

Метод оценки предложений – Метод наименьшей цены

Мин. балл: 95

Предмет закупки:

Наименование товара (работы, услуги)	Услуга по текущему ремонту нежилых зданий
Подробное описание	Лойиха сметага асосан жорий таъмирлаш ишларини бажариш.
Количество товара	1.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	857 630 810.00
Стартовая сумма	857 630 810.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Shartnomani bajarish uchun zarur texnikaviy, moliyaviy, moddiy, kadrlar resurslarining hamda boshqa resurslarning mavjudligi

Тип: Числовое значение

Описание: Shartnomani bajarish uchun zarur texnikaviy, moliyaviy, moddiy, kadrlar resurslarining hamda boshqa resurslarning mavjudligi

Обязательность: Критично

Требование заказчика: Не менее: 95 ШТ

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
<b>ЭЛЕГАНТ НУР МЧЖ</b>	100	857630810	100	Системная		
<b>МПК-225</b>	100	856630810	100	Системная		

Критерий №2 Лойиха сметага асосан жорий таъмирлаш ишларини сифатли ва уз мудатларда бажариб бериш

Тип: Текстовое значение

Описание: Лойиха сметага асосан жорий таъмирлаш ишларини сифатли ва уз мудатларда бажариб бериш

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
<b>ЭЛЕГАНТ НУР МЧЖ</b>	100	857630810	90	Экспертная		
<b>МПК-225</b>	100	856630810	100	Экспертная		

Критерий №3 Korxonaning bir yillik kassa aylanmasi (kassa oborot), ishchilar soni, soliqlar va yig'implarni to'lash bo'yicha qarzdorlikning mavjud emasligi , o'ziga nisbatan joriy etilgan bankrotlik tartib-taomillarining mavjud emasligi va insofsiz ijrochilarning yagona reyestrda qayd etilmaganligi

Тип: Бинарное значение

Описание: Korxonaning bir yillik kassa aylanmasi (kassa oborot), ishchilar soni, soliqlar va yig'implarni to'lash bo'yicha qarzdorlikning mavjud emasligi , o'ziga nisbatan joriy etilgan bankrotlik tartib-taomillarining mavjud emasligi va insofsiz ijrochilarning yagona reyestrda qayd etilmaganligi

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
<b>ЭЛЕГАНТ НУР МЧЖ</b>	100	1	90	Экспертная		
<b>МПК-225</b>	100	1	100	Экспертная		

Оценка участников финансовой части составила:

Наименование участника	Стартовая сумма	Предлагаемая сумма	Дата предложения	Оценка стоимости (балл)
<b>МПК-225</b>	857 630 810.00	857 630 810.00	18.05.2022 10:20:16	100.00
<b>ЭЛЕГАНТ НУР МЧЖ</b>	857 630 810.00	857 630 810.00	18.05.2022 10:15:20	100.00

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
<b>МПК-225</b>	Прошел	100	100
<b>ЭЛЕГАНТ НУР МЧЖ</b>	Прошел	100	100

Закупочная комиссия по конкурсу лот № 84318 от 18.05.2022 года на приобретение Китоб тумани тиббиёт бирлашмасида жорий таъмирлаш ишларини бажариш определила победителем:

ЭЛЕГАНТ НУР МЧЖ  
301159472

и резервный исполнитель: МПМК-225 (200694445)

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
<b>Председатель комиссии</b>	GAPPAROV SHAVKAT XASANOVICH	Согласен	
<b>Член комиссии</b>	BOBOMURODOV ILXOM SHODIYEVICH	Согласен	
<b>Член комиссии</b>	MUXAMMADIYEV SUXROBJON SALOXIDDINOVICH	Согласен	
<b>Член комиссии</b>	TOSHPUKATOV SHUXRAT SUYUNOVICH	Согласен	
<b>Член комиссии</b>	SULTONOV AKRAM MAXMARAJABOVICH	Согласен	
<b>Член комиссии</b>	XASANOV ERGASH BARATOVICH	Согласен	
<b>Член комиссии</b>	XAYRULLAYEV ZIYODULLO MUYIDDINOVICH	Согласен	

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП